

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TARIX FAKULTETI
“O'ZBEKISTON TARIXI” KAFEDRASI

MAVZU: SALJUQIYLAR SALTANATIDA SIYOSIY HAYOT
VA IDORA TARTIBLARI
mavzusida yozgan

REFERATI

Bajardi: Karimov M

Navoiy-2015

Mavzu: Saljuqiylar saltanatida siyosiy hayot va idora tartiblari

Reja:

Kirish.

1. Saljuqiylar davlatining tashkil topishi va undagi ijtimoiy – siyosiy hayot.
2. Saljuqiylar davlatida davlat boshqaruvi va idora tartiblari.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Kirish.

Arab xalifaligi davrida Xuroson va Movarounnahrda ketma – ket noiblar almashib turardi. Jumladan Tohir ibn Husayn o'rniga, ya'ni Tohiriylar o'rniga Somoniylar keldilar va keyin esa Somoniylar o'rniga Qoraxoniylar, Qoraxoniylar o'rniga G'aznaviylar keldilar. G'aznaviylar davlati asoschisi mahmud G'aznaviy 1030 yili vafot etgach uning o'rniga o'tirgan o'g'li mas'ud davlatni saqlab qolishga ko'p harakatlar qildi. Lekin amalda Mas'ud otasi tuzgan davlatni butunligicha saqlab qololmadi.

G'aznaviylar sultoni Mas'ud Xurosonga yurish qilgan turk – Saljuqiylar bilan ko'p bor jang olib borishga majbur bo'ldi. O'z davrida Mahmud G'aznaviyning ruxsati bilan shimoliy Xurosonga joylashib olgan ko'chmanchi chorvador xalq Saljuqiylar bu davrga kelib G'aznaviylar uchun katta xavf tug'dira boshladi. 1035 yili Saljuqiylarning Xurosonga yangi hujumi boshlandi. Nishopurda Niso shahriga yetib kelgan G'aznaviylar qo'shini Saljuqiylarga zarba bergan bo'lsada, Saljuqiyning nevarasi Tog'rul va Changri boshchiligidagi tukrmanlar kechasi G'aznaviylar qarorgohiga hujum qiladi va g'alaba qozonadi. 1037 yil aprelida turkmanlar Mari viloyatini egallab Bog'dodga, xalifaga hokimiyat uchun yorliq berishni so'rab elchi jo'nata dilar. Shu tariqa Saljuqiylar davlatiga asos solinadi.

1. Saljuqiylar davlatining tashkil topishi va undagi ijtimoiy – siyosiy hayot.

X asrning ikkinchi yarmida va IX asrning birinchi yarmi oralig'ida buyuk Saljuqiylar davlati nomi bilan tarixga kirgan yana bir turk davlati paydo bo'ldi.

Saljuqiylar – bu etnik nom emas, balki turkiy, o'g'uz qabilalaridir. Ular X asrda Sirdaryoning quyi oqimida, Orol havzasida yashagan, ko'proq ko'chmanchi hayot kechirgan. “O'g'iznoma” kitobida ko'rsatilishicha, o'g'uz urug'lari juda qadim tarixga ega bo'lib, ularga ilk bor o'g'izxon nomli buyuk shaxs boshchilik qilgan.

IX asr oxiri X asr o'rtalariga kelib Orol bo'yi va Kaspiy dengizi shimolida o'g'uz urug'lari ittifoqi shakllangan. X asr oxirida Sirdaryo etagida poytaxti Yangikent bo'lgan o'g'uzlar davlati tashkil topadi. IX asr o'rtalariga kelib bu davlat sharqdan bostirib kelagn qipchoqlar zarbasiga uchraydilar. Natijada o'g'uz urug'larining bir qismi shimolga – rus dashtlariga, bir qismi old Osiyo mamlakatlariga chekinadi. Yana bir qismiesa hozirgi Turkmaniston hududlariga o'tib, yerli aholi bilan atalib ketdilar.

Taniqli olim Qozoqboy Mahmudovning fikricha Saljuqiylar ham alptekin singari O'g'uz qabilasining Qiniq urug'iga mansub bo'lganlar. X asrda yashagan arab geografi Ibn Hayqalning bergan ma'lumotiga qaraganda, islom dinini qabul qilgan minnga yaqin turk oilasi sharqdan Forob Kenjit va Shosh o'rtasidagi tumanga , ya'ni hozirgi Chimkentning janubi – g'arbiga ko'chib kelgan. O'g'uzlar aslida qadimiy turk qabilasi bo'lganlar. Ularning afsonaviy qahramoni, davlatining asoschisi hamda rahbari O'g'uz bo'lgan. Uning avlodlarini o'g'uzlar deb atashgan.

O'g'uzxonni afsonaviy qahramon sifatida tasvirlab yozilgan rivoyatlar va hikmatlar “O'g'iznoma” nomi bilan chop etilgan. Bundan tashqari XIII – XIV asrlarda yashagan Rashid – id – Dinning uyg'ur alifbosida yozgan “O'g'iznoma” asari o'g'uz xoni haqida ko'proq ma'lumotlar beradi.

O'g'uz – ug' – qabila, urug' ma'nosini beradi, uz esa affiks qo'shimchadir. O'g'uz yakka xudolikni – islomni yoshlik chog'idan qabul qiladi. Bu holat O'g'uzning otasi Qoraxonga yoqmaydi. Ikki o'rtada qattiq jang bo'lib, O'g'uzning otasi yengiladi. Turklarga mansub uyg'urlar O'g'izxon tomoniga o'tadilar. Natijada O'g'izxonning lashkarlari ko'payib, katta kuchga aylanadi. Kuchli qo'shinga ega bo'lgan O'g'uzxon Talas va Sayram viloyatlarini bosib oladi, Volga daryosigacha bo'lgan hududlarni qo'lga kiritib, o'z yerlarini kengaytiradi.

Mahmud Qashg'ariy (XI asr), Rashid – id – Din (XIII – XIV asr), Abulg'oz (XVII asr) larning xabar berishicha o'g'uzlar 22 yoki 24 qabiladan iborat bo'lgan. Bular: Chovdir, Chandir, Yemreli, igdir, Yazir, Salir, Qorashdoshli, Bayot, Koyi, Tuturga va boshqalar.

Sirdaryoning quyi oqimida barpo bo'lgan o'g'uz davlatining yobg'uzi Saljuqbek Saljuqiylar sulolasining asoschisi bo'lgan. Saljuqbekning nabiralardan Turg'ulbek, Chag'irbek va Shakarbek Saljuqiylar davlatini saltanat darajasiga ko'tarilishida katta xizmatlar qilganlar. O'g'uzlar nafaqat o'zbeklar va turkmanlarning, balki hozirgi Turkiya turklar, Iroq turkmanlari, Eron turkmanlari, gagauzlar, Ozarbayjon xalqlarining ham tashkil topishga yetakchi etnik guruh bo'lganlar.

Saljuqiylar dastlab quyi Sirdaryo hududidagi Jand tumanlari atrofida chorvachilik qilib ko'chib yurganlar. Ammo bu yerning hokimi Shahmalik bilan uchrashib qolib Zarafshon daryosining shng qirg'og'iga – Nur (Nurota) tumaniga ko'chib ketishga majbur bo'lganlar. Saljuqiylarning Nurota tumani atrofida joylashishlariga somoniylar ruxsat berganlar. Somoniylar Saljuqiylar bilan yaxshi, tinch – totuv yashashdan mafaatdor bo'lganlar. Chunki Saljuqiy turklar qoraxoniylarga qarshi kurashda somoniylarga yordam berganlar. Ammo XI asrning birinchi yarmida turkman – Saljuqiylarining ahvoliancha og'irlashib qoladi. Chunki Qoraxoniylar bilan birga Movarounnahr, shu jumladan Zarafshon vodiysi hududlariga ham chig'illar, qarluqlar, yag'molar va boshqa turk qabilalari ko'chib kelganlar. Ularning ko'chib yurishlari va chorva mollari

uchun joy, yaylovlar kerak edi. Movarounnahrda iloxon Alitakin hokimlik qilgan (1034 yilda u vafot etgan) davrda Saljuqiylar turkdariga unchalik teginmas edilar. Alitakin vafotidan so'ng uning o'g'illari yosh bo'lganligidan butun ishni vazir Tunush olib boradi. Tunush davrida Saljuqiylar Zarafshon vohasining tashlab ketishga majbur bo'ladilar. Ana shunday og'ir bir sharoitda Xorazmshoh Xorun 1034 yilda Saljuqiylarga raboti Mashon, Sho'raxon va Govixor tumanlaridan yer ajratibberadi. Biroq, Jand hokimi ularga hujum qilib sakkiz ming kishini o'ldirdi. Turg'uldek boshliq Saljuqiylar bu yerlarni tashlab ketishga majbur bo'ldilar. Ular Mahmud G'aznaviyning o'g'li Mas'udbekka (1030 – 1041 yillarda podsholik qilgan) murojaat qilib o'zlariga Saraxs, Mar, Abivard, Niso va Farova hududlarida ko'chirib yurishga rozilik so'radilar. Chunki bu tumanlar chorva mollari uchun juda qulay joylar edi.

Lekin G'aznaviylar ilgarilari ham bu hududlarni Saljuqiylar turkmanlarga berib oqibatda achchiq azoblar chekkan edilar. Jumladan, 1025 yilda Mahmud G'aznaviyning ruxsati bilan Abivard, Niso va Farova tumanlariga to'rt ming o'tovdan iborat turkman xonadonlari ko'chib kelgandilar. Ular mahalliy amaldorlarning shaxsiy manfaatlari uchun pora tariqasida mol topshirishni talab qilganliklariga javoban oddiy xalqni talay boshlaydilar. Bu hol turkmanlar bilan mahalliy qo'shni qishloqlar xalqlari o'rtasida g'oyatda kuchli dushmanliklarni kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Natijada o'z qilgan xatosidan afsuslangan Mahmud G'aznaviy turkmanlarni tartibga chaqirish uchun harbiy kuchni ishga solishga majbur bo'ldi. Shundan so'ng turkmanlar bu yerlarni tashlab ketdilar. Ularning bir qismi Balxan tog' tumanlariga, ikkinchi qismi Dehiston tumanlariga, katta bir guruhi esa G'arbgga – Fors Iroqi, u yerdan Kavkaz orti, Arman va Ozor yurtlariga ko'chib ketdilar.

Shunga qaramasdan, G'aznaviylar hukumati Turg'ulbek boshchiligidagi turkmanlarning iltimoslarini qondirib 1035 yilda Nishopurda imzolangan shartnomaga ko'ra Niso, Farova va Dehiston tumanlarini ajratib berdilar. Ammo bu safar ham Saljuqiylar turkmanlar dehqonchiligi bilan shug'ullanadigan mahlliy o'troq xalq bilan umumiy til topa olmadilar. Ular og'izda o'troq aholi

biln tinch yashash tarafdori bo'lsalarda, amalda g'aznalilar hukumatidan yangi – yangi yerlarni talab qilishda davom etdilar. Xususan ular Marv va Saraxs yerlarini qat'iylilik bilan talab qildilar. Otasi singari Mas'ud ham turkmanlarga qarshi kuch ishlatishga majbur bo'ldi. Lekin vaziyat G'aznalilarzarariga ishlayotgan edi. Xurosonda ularning obro' – e'tiborlari qolmadi, shu bois ular hech kimga tayana olmas edilar. Jumladan, G'aznaviylarning so'nggi noibi Abulfozil Suriyni Xuroson halqi haddan tashqari yomon ko'rar edi. U o'zining poraxo'rliqi, qo'polligi do'q – po'pisa qilib ham har doim, mansabini suiist'emol qilganligi tufayli otni qashqasidek elga tanilib qolgan edi. XI asrda yashagan fors tarixchisi Bayhaqiy "Xuroson aholisi G'aznaviylar qo'shinining aholisi hisobiga yashayotganidan va ularning xalqqa qilayotgan zo'ravonliklaridan shu darajada qiynalib azob chekkan ediki, Xurosonga Saljuqiy tukrlar kelganda bu o'lka o'z boshidan to'liq beboshlikni kechirayotgan edi" – deb yozgan edi.

Ana shunday sharoitda g'aznalilar Saljuqiylarga qarshi kurashda muvaffaqiyatga ko'z tika olmas edi. Mas'ud armiyasining Saraxs yonidagi mag'lubiyatning bosh sababi ham xuddi shunda edi. Endi turkmanlar uchun Xurosonning bosh shahri Nishopurga to'g'ridan – to'g'ri yo'l ochilgan edi. Saljuqiylarning boshlig'i Turg'ulbek 1038 yilda uch ming kishilik qo'shin bilan deyarli hech qanday qarshiliksiz Nishopurni egalladi. Nishopurlik ruhoniylar va savdogarlar shaharni mutlaqo jangsiz topshirish tarafdori bo'lganliklarini alohida ta'kidlash kerak.

Ammo bu bilan Xurososnning taqdiri uzil – kesil Saljuqiylar foydasiga hal bo'ldi, deb xulosa chiqarishga hali vaqt bor edi. Buning ustiga xuddi shu 1038 yilda mas'ud Saraxs yonidagi navbatdagi jangda Saljuqiylarga katta zarba ham berdi. Ammo u ushbu g'alabaga ortiqcha baho berib urushni davmo ettirmadi. Bu bilan Mas'ud Saljuqiylarga o'z kuchlarini yangidan, qayta to'plab olishga imkoniyat yaratib berdi. 1040 yilda Turg'uldek Saraxs va Marv oralig'idagi dandanakon yonida mas'ud qo'shiniga qaqshatgich zarba berdi. Mas'ud o'zi esa kichik bir qo'shin bilan zo'rg'a qochib qutildi. Bu jang oqibatida

g'aznalilardavlati mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan bir viloyatga aylanib qoldi, harbiy va siyosiy ustunlik endi batamom Saljuqiylar qo'liga o'tib ketdi. G'aznalilardan tortib olingan yerlarni Turg'ulbek Saljuqiylar xonadoning a'zolariga udel sifatida taqsimlab berdi. Jumladan, Chag'ribek Davudga Marv va xurosonning katta qismi, Muso Yobg'uga (Turg'ulbekning amakisi) Tus, Hirot va Seyston viloyatlari berildi. Turg'ulbek o'ziga Eronning shimoliy va shimoli – g'arbiy viloyatlarining katta qismini oldi. Turg'uldek ayni zamonda Saljuqiylar davlatining boshlig'i (1038 – 1063 yy.) ham bo'lib qoldi. Turg'ulbekni xususiy mulk uncha qiziqtirmas edi. Turg'ulbekning nigohi batamom g'arbga qaratilgan edi. U hujumni davom ettirib Iroq Ajami (fors, iroqi), Ozarbayjon, Kurdiston, Ko'histonni zabt etdi. Turg'ulbek 1055 yilda Bag'dodga kirib bordi va o'z nomini xutbaga qo'shib o'qitishga Bag'dod xalifasini majbur qildi. Saljuqiylar davlatining poytaxti qilib Ray shahri belgilandi. Turg'ulbek iloji boricha Qoraxoniylar bilan hamkorlikda va tinch yashashga harakat qildi. Ammo bu mustahkam bo'lmagan tinchlik uzoqqa cho'zilmaydigan edi. Har ikkala turk sulolasini to'qnashuvga olib kelgan janjalli muammolar hali bor edi.

1063 yilad Saljuqiylar davlatining boshlig'i Turg'ulbek vafot etgach, taxtga uning jiyani, Chag'ribek Dovudning o'g'li Alp Arslon (1063 – 1072 yy.) o'tirdi. Udavlat poytaxtini Marvga (hozirgi Mari) ko'chirdi. Alp Arslon podsholigi davrida qoraxoniylar hukmdori Nasr bilan o'zaro qarama – qarshilik va ziddiyat kuchaydi. Alp Arslon Xuttalyon, Chag'oniyon, Jand va Savranga Xorazm tomonidan lashkar tortib bordi. U 1072 yilda qoraxoniylarga qarshi yurish boshlab qariyb 200 ing kishilik qo'shini Amudaryodan o'tkazish uchun kemalardan maxsus ko'prik qurirdi. Ammo yurish boshlnishi oldidan Alp Arslon o'z chodirida mahalliy qal'alarning boshliqlaridan biri Yusuf al – Xorazmiy tomonidan o'ldirildi. Qoraxoniylarga qarshi yurishni kechiktirishga to'g'ri keldi.

Alp Arslonning o'ldirilishi Qoraxoniylar xoni Shams ul – mulk Nasrning ruhini ko'tarib yubordiva tez orada termizni, so'ngra Balxni egallab oldi. Ammo

uning bu xursandchiligi ko'p uzoqqa cho'zilmadi. Alp Arslon o'rniga taxtga vorislik qilgan Malikshoh (1072 – 1092 yy.) ko'p vaqt o'tkazmay Termiz va Balxniqoraxoniylardan qaytarib oldi. Ana shu davrdan boshlab ichki va tashqi siyosatda ustunlik batamom Saljuqiylar qo'liga o'tdi. Endi har daqiqada Shams ul – mulk Nasr, Malikshoh hujumidan xavotirda, qo'rqib yashaydigan bo'lib qoldi. 1080 yilda Shams ul – mulk vafot etgach vaziyat yanada og'irlashdi. Shams ul – mulk vafotidan so'ng podsholik qilgan uning o'g'li Ahmad davrida musulmon ruhoniylari va turk lashkarboshilari o'rtasida munosabat yanada og'irlashdi. Mamlakatning ichki ahvoriga bu hol o'z ta'sirini ko'rsatdi. Vaziyatdan xabar topgan Malikshoh 1089 yilda katta lashkar bilan Amudaryodan o'tdi va Buxoro hamda samarqand shaharlarini egalladi. Qoraxoniylar xoni ahmad esa asir olindi. Ahmad bilan Malikshoh o'rtasida bo'lib o'tgan muzokaralardan so'ng Ahmad Samarqandga qaytdi va taxtga o'tirdi. Ammo bu hol samarqandda ruhoniylar va lashkarboshilarning noroziligiga sabab bo'ldi. Turkiy sarkardalar 1095 yilda Koson yo'lida Ahmadni qo'lga olib yoy ipi bilan bo'g'ib o'ldirdilar. Uning o'rnida taxtga Mas'udxon chiqdi.

Malikshoh hukmronligi davrida vazirlik lavozimida ishlagan nizom ul – mulk (1017 – 1092 yy.) davlat ishlarini boshqarishda katta ta'sir kuchga ega bo'lgan. U davlat arbobi sifatida mamlakatda yirik feodallar va qabila boshliqlarining separatli (Markaziy davlatni ajratishga intilish) harakatlariga qarshi kurashgan. Markazlashgan davlat uchun astoydil jon kuydirgan Nizom ul – mulk o'zining “Siyosatnoma” asari bilan mashhur. Bu asarda Markaziy Osiyoda arablar istilosidan so'ng yuritilgan iqto' tanqid qilinadi. Markazlashgan davlatni barpo qilish har tomonlama asoslanadi.

1092 yilda Saljuqiylar xoni Malikshoh ham o'ldirildi. Saljuqiylar davlatida isyon va va g'alayonlar hokimiyat tepasiga 1118 yilda – “ulug' Saljuqiylar”ning eng so'nggi vakili Sulton Sanjar (1118- 1157 yy.) kelgach tinchidi. Uning davrida Saljuqiylar Movarounnahrda eng yuksak mavqega erishdilar. Bu davrda Saljuqiylar qoraxoniylar davlatining ichik ishlarga juda ko'p aralashadigan

bo'lib qoldilar. Qoraxoniylar xoni arslonxon (1102 – 1130 yy.) o'zi mustaqil davlat siyosati yurgizishga harakat qilgan bo'lsa – da, ana shu davrda inqiroz sari yo'l tutdi. Og'ir ahvolga tushib qolgan arslonxon do'st bo'lib yordamga turkman sultoni Sulton Sanjarni chaqirgan edi. Sulton Sanjar katta qo'shin bilan kelib Movarounnahr va Samarqandni talon – taroj qilgan edi. Samarqadni Sulton Sanjar 11030 yilda egallagan va qoraxoniylar o'zlarining amaldagi mustaqilliklarini yo'qotib Sulton Sanjarning o'zi ham 1141 yilda qoraxitoylar bilan Katvon cho'lida (Samarqand yaqinida) bo'lgan jangda qashatgich zarbaga uchradi va o'zini o'nqlab ola – olmadi. U 1157 yilda uchrali vafot etdi. Ana shu tariqa dunyoni larzaga solgan Saljuqiylar davlati ham barham topdi. Sulton Sanjarning keyingi faoliyati haqida ikki og'iz so'z!

Sulton Sanjar 1153 yilda Balx viloyatining tog'li hududlarida ko'chib yuruvchi g'uz qabilalarining g'alayonlarini bostirish chog'ida kutilmaganda asirga tushib qoladi. U uch yil davomida g'uzlar qo'lida asirlikda bo'ladi. Bu vaqtda g'uzlarning xuroson va movarounnahrning janubiy – sharqiy yerlariga bosqinchilari tez – tez takrorlanib turadi.

Faqat 1156 yildagina Sulton Sanjar tutqunlikdan qutilishga muvaqqat bo'ladi va oradan bir yil o'tgach vafot etadi. Uning o'limi bilan bir vaqtda o'z davrida qudratli bo'lgan Saljuqiylar sulolasi – yu, uning shon – shuhrati ham tugaydi. Bu davrga kelib Kermon o'z mustaqilligiga erishadi. Fors va Ozarbayjon hududlarida mustaqil davlatlar paydo bo'ladi. Xuroson ham Saljuqiylar tobeligidan chiqadi. Arab xalifaligi o'zining avvalgi mustaqilligini tiklaydi. Ayni chog'da kichik Osiyo hududida Saljuqiy turklarning uzil – kesil joylashuvi jarayoni kuchayadi, ularning mustaqil davlat tuzilmalari vujudga kela boradi.

2. Saljuqiylar davlatida davlat boshqaruvi va idora tartiblari.

Tarixchi olimlar Rashiddidin, shuningdek Mahmud Qoshg'ariy, Abul G'ozilarning ma'lumotlariga qaraganda, o'g'uzlar 22 yoki 24 qabiladan, chunonchi, shavdir, emreli, ishdir, yazir, salir, qoradoshli, bayot, koyi, taturga va boshqalardan tashkil topgan.

Sirdaryo quyi oqimida paydo bo'lgan o'g'iz davlatining dastlabki yobg'usi (podshosi) Saljuqbek (taxminan IX asr oxiri X asr boshi) bo'lgan. Uning avlodlari Torg'ulbek, Dovudbek, Chag'ribek va Shakarbeklar o'z davrlarida Saljuqiylar shuhratini yuksaklikka ko'targanlar.

Saljuqiylar davlatini boshqargan hukmdorlar:

- 1. Tog'rulbek – 1038 – 1063 yy.**
- 2. Alp Arslon – 1063 – 1072 yy.**
- 3. Malikshoh – 1072 – 1092 yy.**
- 4. Sulton Sanjar – 1118 – 1157 yy.**

Hozirgi Turkiya turklari, Iroq, Eronda yashovchi turmanlar, shuningdek, Gagauzlar, ozarbayjon xalqlarining shakllanishida Saljuqiy turklarining roli va ta'siri alohida ahamiyatga ega.

Somoniylar hukmronligi davrida ularning ruxsati bilan Saljuqiy qabilalari Zarafshon vodiysiga kelib o'rnamshib, chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Keyinroq Movarounnahr hududlari qoraxoniylar sulolasi tomonidan egallanib, ularning chorvador xo'jaliklari bu yerlarni band etgach, Saljuqiylarning yashash garoiti mushkullashadi. Shu bois, ular g'arbga tomon siljishga majbur bo'ladilar. XI asrning 20 -30 yillariga kelib Saljuqiy urug' – qabilalarining hozirgi turkman yerlari orqali G'aznaviylar tasarrufidagi Xuroson o'lkasiga kirib borishi faollashadi. 1038 yilda Saraxsda, 1040 yilda dandakonja bo'libo'tgan hal qiluvchi urushlar davomida Saljuqiylar G'aznaviylarni yengib, butun Xuroson yerlarini egallab, o'z davlati markazishu hududga ko'chiradilar. Shu tariqa,

Nishopur shahri Saljuqiylar poytaxtiga aylanadi. Saljuqiylar hukmdori Turg'ulbek egallagan Movarounnahr va Xuroson hududlarini o'z avlodlari – Shakarbek va Dovudbeklartasarrufida qolib, o'zi g'arbga tomon harbiy yurishlarni davom ettirdi. Torg'ulbekning 1038 – 1063 yilni o'z ichiga olgan hukmronlik davri Old Osiyo va Kichik Osiyoning katta hududlarini qo'lga kiritilganligi bilan tavsiflanadi.

Bu davr mobaynida Saljuqiylar Gurgon, Tobariston, Xorazm, Ozarbayjon, Kurdiston hududlarini, xozirgi g'arbiy eron viloyatlarining bir qismini, shuningdek Fors, Kermon viloyatlarini egalladilar. 1055 yilda esa xalifalik markazi Bag'dod ishg'ol qilindi. Ayni paytda, Vizantiyaning Kavkazdagi ta'siriga ham kuchli zarba berildi. Shunday qilib, Turg'ulbek kuchli saljuqiylar sultonligiga asos soldi. Uning vorisi Alp Arslon (1063 -1072 yy.) ham jahongirlik yurishlarini davom ettirdi. Uning davrida O'rta Yer dengiziga qadar bo'lgan. Kichik Osiyo yerlari ham egalladi. Endilikda Saljuqiylar saltanati movarounnahrndan to O'rta Yer dengiziga qadar bepoyon hududlarga yoyildi.

Alp Arslon mamlakat poytaxti Nishopurdan Marvga ko'chiradi. U o'z podsholigi davrining ktta qismini yana Sharqqa Movarounnahrning Qoraxoniylar ta'sirida bo'lgan joylarini egallashga qaratdi. Shu maqsadda u Xorazm yerlarini, so'ngra Jand, Sabronni qo'lga kiritdi. Keyinroq Chag'oniyon va Xuttalon viloyatlarini bosib olish uchun qo'shin tuzadi. Biroq Alp Arslon 1072 yilda 200 ming qo'shin bilan Amudaryo kechuvidan o'tish chog'ida kutilmaganda halok bo'ladi.

Saljuqiylar davlati qudratining Movarounnahr va Xurosondagi eng kuchaygan payti Malikshoh (1072 1092 yy.) davriga to'g'ri keladi. Gap shundaki, xuddi shu yillarda Malikshoh va uning tadbirkor, dono vaziri Nizomulmulk tomonidan mamlakat hayotining ko'plab sohalarida juda muhim ijobiy o'zgarishlar amalga oshiriladi. Avvalo, Saljuqiylar davlatining Movarounnahrdagi maqomi yanada mustahkamlanadi. Malikshoh muhim strategik ahamiyatga molik Balx va Termiz hududlarini Qoraxoniylardan qaytarib oladi. Shuningdek, qoraxoniylar hukmdori Shamsulmulk vafotidan

so'ng vujudga kelgan qulay vaziyatdan foydalanib, 1089 yilda katta qo'shin tortib buxoro va Samrqandni egallaydi va yangi xon Ahmadni asir oladi. Garchand tez orada ahmad Qoraxoniylar xonligi taxtiga qaytarilgan bo'lsa – da, biroq amalda Qoraxoniylar Saljuqiylarga tobe bo'lib qoladi.

Malikshoh davrida davlat hokimiyatining kuchayishida dono vazir Nizomulmulk (1017 – 1092 yy.) roli benazirdir. Katta hudud va keng vakolatlarga ega bo'lgan birinchi vazir markaziy hokimiyatni kuchaytirishga, davlat amaldorlarining mas'uliyati va javogarliligini oshirishga, davlatning moliya, soliq va boshqa boshqaruv tizimlarini takomillashtirishga alohida ahamiyat beradi. U o'zining bu boradagi yuksak salohiyati va tajribasini umumlashtirib, mashhur “Siyosatnoma” asarini yozadi. Bu kitob katta shuhrat va e'tirof qozonib, mana necha asrlarki, sharq va g'arb mamlakatlarining davlat arboblari, vaziru fuzalolari uchun siyosat bobida muhim dasturilamal qo'llanma vazifasini bajarib kelmoqda.

Nizomulmulkning rahnamoligi va tashabbusi bilan Bag'dod, Nishopur, Hirot, Balx, Marv kabi shaharlarda oliy madrasalar ochilib, ularda juda ko'plab o'qimishli yoshlarning ta'lim – tarbiya olishi yaxshi yo'lga qo'yildi. Mamlakat shaharlarining hunarmandchilik va savdo – sotiq, karvon savdosi markazlari sifatidagi mavqei kuchayib, xalqaro ipak yo'nalishining roli ortib bordi.

Bu davrda “iqto” tizimi kuchli rivojlangan bo'lib, uning bilan bog'liq mulkiy munosabatlar qishloq xo'jaligi sohasida yetakchi mavqei egalladi. Saljuqiylarning eng so'nggi hukmdori Sulton Sanjar (1118 – 1157 yy.) davrida bu davlatning yuz tutishi o'ziga xos murakkab, ziddiyatli davr bo'lganidan darak beradi.

Negaki, bu yillarda Saljuqiylar hukmronligi Xuroson va Movarounnahrda yanada mustahkamlanadi. Qoraxoniylar hukmdorlari amalda ularga tobelik maqomiga tushib qolgan edi. Ayniqsa, 1130 yilda Sanjar tomonidan bu sulolaning asosiy hayotiy markazlari Samarqand va Buxoroning egallaganligi (garchand bular yana Qoraxoniylarga qaytarib berilgan bo'lsa – da) fakti ham fikrimizni isbot etadi. Bu davrda Xorazm yerlari ham amalda Saljuqiylar

ta'sirida bo'lib, Xorazmshohlar, masalan Qutbiddin Muhammad, otsiz rasman ularga itoat etardilar.

IX asrning 40 – yillariga kelib Saljuqiylar davlatining mavqei susaya boshladi. Bunda, ayniqsa, sharqdan bostirib kelgan Qoraxitoylar, bir vaqtning o'zida ham Qoraxoniylarga hamda Saljuqiylar saltanatiga katta xavf soladi. Sulton Sanjar va Qoraxoniylar xoni Mahmudning birlashgan qo'shini 1141 yilda Samarqand yaqinidagi Katvon cho'lida Qoraxitoylar bilan bo'lgan hal qiluvchi jangda qaqshatgich mag'lubiyatga uchragach, Movarounnahr yerlari Qoraxitoylar qo'li ostiga o'tadi. Saljuqiylar katta hududlarga egalik qilish huquqidan mahrum bo'ladi.

Qoraxitoylar esa Movarounnahrni ishg'ol etish barobarida, bu yerdagi sulolalar hukmronligi yiqitmay, ularni o'zlariga vassal qismi muntazam boj, xiroj olib turish sharti bilan kifoyalandilar. Shuning uchun ham Qoraxitoylar, Xorazmshohlar va boshqalar Bolosog'unda turishi Qoraxitoy hukmdori Gurxonga kelishilgan miqdordagi xiroj – o'lponni yuborib turishga majbur edilar.

Sulton Sanjarning keyingi taqdiri ham favqulotda xolatda kechdi. U 1153 yilda Balx viloyatining tog'li hududida ko'chib yuruvchi guz qabilalarining g'alayonlarini bostirishchog'ida kutilmaganda asirga tushib qoladi. U uch yil davomida guzlar qo'lida asirda bo'ladi. Bu vaqt ichida guzlarning Xuroson va Movarounnahrning janubiy – sharqiy yerlariga bosqinlari tez – tez takrorlanib turadi.

Faqat 1156 yildagina Sulton Sanjar tutqunlikdan qutilishga muvaffaq bo'ladi va bir yildan so'ng vafot etadi. Uning o'limi bilan bir vaqtda o'z davrida qudratli bo'lgan markazlashgan Saljuqiylar davlati – yu, uning shonu shuhrati ham so'nadi. Bu davrga kelib Kermon o'z mustaqilligiga erishadi. Fors va Ozarbayjon hududlarida mustaqil davlatlar paydo bo'ladi. Xuroson ham Saljuqiylar tobeligidan chiqadi. Arab xalifaligi o'zining avvalgi mustaqilligini tiklaydi. Ayni chog'da, Kichik Osiyo hududida Saljuqiylar turklarning uzil – kesil joylashuvi jarayoni kuchayadi hamda ularning mustaqil davlat tuzilmalari

vujudga kela boradi. Bular, keyinchalik, Usmonli turklar davlatining tarkibi topib mustahkamlanishida muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa

Yer yuzida qancha davlat paydo bo'lgan bo'lsa, ularning jahon sahnasida davlat bo'lib kelishi, rivojlanishi, yutuqlari va ayrim sabablar bilan inqirozga yuz tutishi davrlari ham bo'lgan.

IX – XII asrlarda paydo bo'lgan qator davlatlar: Tohiriylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar shu bosqichlarni boshlaridan kechirganlar. Bundan Saljuqiylar davlati ham mustasno emas albatta.

X asrning oxiri, XI asrning boshlarida paydo bo'lgan va Xuroson bilan Movarounnahrni qo'lga kiritgan shunday davlatlardan biri Saljuqiylar davlati bo'ldi.

Saljuqiylar davlatining rivojlangan davri Tog'rubek boshlab, Sulton Sanjar davrlarini o'z ichiga oladi.

Aslida islom dinini qabul qilgan mingga yaqin turk oilalari sharqdan Farob, Kenjit va Shosh o'rtasidagi tumanga, ya'ni hozirgi Chimkentning janubi – g'arbiy hududiga ko'chib kelganlar.

Qadimgi manbalarning guvohlik berishiga qaraganda, bular O'g'iz qabilalaridan bo'lib, aslida qadimiy turk qabilasi bo'lganlar. Ular Mo'g'ilistonning shimoli – sharqida shakllangan. O'g'uz mazkur qabilaning afsonaviy asoschisi hamda rahbar bo'lgan. Uning avlodlarini o'g'uzlar deb atashgan.

O'g'uzni afsonaviy qahramon sifatida tasvirlab yozilgan rivoyatlar va hikmatlar “O'g'iznoma” nomi bilan chop etilgan. XII asrda noma'lum bir kishida “O'g'iznoma”ning qadimiy ko'rinishlaridan bir nusxasi saqlanib qolgan. XIII – XIV asrlarda yashagan Rashid – id – Din uyg'ur alifbosida yozgan “O'g'iznoma”da o'g'uz xoni haqida ko'proq ma'lumotlar berilgan.

O'g'uzlar Chimkent tomonlardan asta – sekin Sirdaryoning quyi oqimi, Orol dengizi tomon siljib borganlar. Ular ko'chmanchi chorvador bo'lganliklari

munosabati bilan yaylovlar izlab ko'chib yurganlar. Shunday qilib IX asr oxiri X asr o'rtalariga kelib Sirdaryo etaklarida O'g'uzlar davlati tashkil topgan.

Sirdaryo quyi oqimida barpo bo'lgan O'g'uz davlatining yobg'usi Saljuqbek, Saljuqiylar xonadonining asoschisi edi.

Saljuqbekning nabiralaridan Tog'rulbek , Chag'irbek va Shakarbeklar saljuqiylar davlatini saltanat darajasiga ko'tarishda katta xizmatlar qilganlar. O'g'uzlar nafaqat o'zbeklar va turklarning, balki hozirgi Turkiya turklari, Iroq turkmanlari, Eron turkmanlari, Gagauzlar, ozarbayojon xalqining ham tashkil topishiga yetakchi etnik guruh bo'lganlar.

Saljuqiylar sulolasi, saljuqiylar davlatiga qariyb 99 yil hukmronlik qilganlar.

- 1. Tog'rulbek – 1038 – 1063 yy.**
- 2. Alp Arslon – 1063 – 1072 yy.**
- 3. Malikshoh – 1072 – 1092 yy.**
- 4. Sulton Sanjar – 1118 – 1157 yy.**

Saljuqiylarning so'nggi xoni Sulton Sanjar 1141 yilda Qoraxitoylar bilan Katvon cho'lida (Samarqand yaqinida) bo'lgan jangda qaqshatgich zarbaga uchrab, keyin o'zini o'nglab olomadi. U 1157 yilda vafot etdi.

Ana shu tariqa dunyoni larzaga solgan saljuqiylar davlati ham barham topdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I. A. Karimov “O’zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura”, 1 – jild, Toshkent, “O’zbekiston”, 1996 yil.
2. I. A. Karimov “Bizdan ozod va obod vatan qolsin”, 2 – jild, Toshkent, “O’zbekiston”, 1996 yil.
3. I. A. Karimov “Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir”, 3 – jild, Toshkent, “O’zbekiston”, 1996 yil.
4. I. A. Karimov “Bunyodkorlik yo’lidan”, 4 – jild, Toshkent, “O’zbekiston”, 1996 yil.
5. I. A. Karimov “Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi”, 5 – jild, Toshkent, “O’zbekiston”, 1997 yil.
6. I. A. Karimov “Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo’lida”, 6 – jild, Toshkent, “O’zbekiston”, 1998 yil.
7. I. A. Karimov “tarixiy xotirasiz kelajak yo’q”, 4 – jild, Toshkent, “Sharq”, 1998 yil.
8. I. A. Karimov “Biz kelajagimizni o’z qo’limiz bilan quramiz”, 7 – jild, Toshkent, “O’zbekiston”, 1999 yil.
9. I. A. Karimov “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz”, 8 – jild, Toshkent, “O’zbekiston”, 2000 yil.
10. I. A. Karimov “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch”, 4 – jild, Toshkent, “Ma’naviyat”, 2008 yil.